

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

Ro'yxatga olindi  
№ 2014000002  
2014 yil "\_\_\_" \_\_\_

Institut Kengashining  
№ \_\_\_-sonli qarori bilan  
**TASDIQLANGAN**  
(2014 yil \_\_\_ iyun)



**MILLIY HISOBLAR TIZIMI  
fanining**

**O'QUV DASTURI**

**Oliy ta'limning**

**Bilim sohalari:** 100000 - Ta'lim  
200000 - Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq

**Ta'lim sohalari:** 110000 - Pedagogika  
230000 - Iqtisod

**Ta'lim yo'nalishlari:** 5230900 – Buxgalteriya hisobi va audit  
5230800 – Soliqlar va soliqqa tortish  
5231200 – Sug'urta ishi  
5111000 – Kasb ta'limi 5230900 – Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)  
5230300 – Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etish(tarmoqlar bo'yicha)

**Toshkent – 2014**

Fanning o'quv dasturi institut Kengashining 2014 yil "\_\_\_\_" dagi \_\_-son majlis bayoni bilan ma'qullangan.

Ushbu tanlov fanining o'quv dasturi  
Toshkent moliya institutining "Statistika" kafedrasida ishlab chiqildi

Fanning o'quv dasturi Toshkent moliya institutida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi:**

Qoraboev A.R. – i.f.n., dotsent.

**Taqrizchilar:**

B.K. G'oyibnazarov-DSQ Kadrlarni qayta tayyorlash va statistika tadqiqotlari Markazi (QQT va STM) direktori, i.f.d.,prof. (tashqi)

Rashitova N.X. – Toshkent moliya instituti, i.f.n., dotsent (ichki)

Fanning o'quv dasturi Toshkent moliya instituti o'quv-uslubiy Kengashida muhokama etilgan va tavsiya qilingan (2014 yil 26 aprel 5-sonli bayonnoma)

**KENGASH RAISI**

  
A. Karimov

## KIRISH

O'zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab, iqtisodiyotni boshqarish bozor iqtisodiyoti printsiplari asosida olib borilmoqda. Bozor iqtisodiyotiga o'tish o'ta murakkab jarayon bo'lib, bu iqtisodiy jarayonlarni ifodalovchi yangi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish va uni amaliyotga tadbiiq etishni talab etadi. Bu xususida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek, "Ilmiy asoslangan, bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillariga javob beradigan, milliy hisoblar tuzishni ta'minlaydigan hamda xalqaro statistika andozalariga muvofiq bo'lgan yagona statistika metodologiyasi va ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqib, tadbiiq etish asosiy vazifalardan biri"<sup>1</sup>.

Bozor munosabatlari iqtisodiyotni yuritish tizimi sifatida o'z qonunlariga ega. Bu qonunlardan samarali foydalanish, ularni hayotga tadbiiq etish ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlarini shakllantirishda, uning asosiy quroli bo'lgan milliy hisobchilik tizimi asosiy va zaruriy ahamiyatga egadir. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan va rivojlanayotgan 198 mamlakatda iqtisodchilar makroiqtisodiy siyosatning turli yo'nalishlarini uyg'unlashtirishda milliy hisoblar tizimi uslublaridan u yoki bu darajada foydalanishmoqda.

Milliy hisoblar tizimi – bu aynan bozor iqtisodiyotiga asoslangan tizim bo'lib, milliy iqtisodiyot bo'yicha chambarchas bog'langan statistik ko'rsatkichlarni makroiqtisodiy tuzilmada baholash, hisob-kitoblar to'plami va balans jadvallar tuzish, iqtisodiy faoliyat natijalarini xarakterlash hamda iqtisod tuzilmasini va boshqa muhim zaruriy bog'lanishlarni ifodalashga xizmat qiladigan tizimdir.

Shu jihatdan ham xalqaro andozalar talablariga muvofiq respublikada milliy hisoblar tizimi joriy etish maqsadida 1994 yil 24 avgustda "O'zbekistonda xalqaro amaliyotda qabul qilingan hisob va statistika tizimiga o'tish davlat dasturi" ishlab chiqildi va u bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Mazkur o'quv dasturi iqtisodchi mutaxassislar tayyorlaydigan va qayta tayyorlaydigan barcha oliy o'quv yurtlarida bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat iqtisodiyotida kechayotgan iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni ifoda etuvchi ko'rsatkichlar tizimi, ularni hisoblash va tahlil qilish usullari bilan tanishtirish, bu ko'rsatkichlarni xalqaro amaliyotda qabul qilingan andozalar asosida hisoblash usul va uslublarini o'rgatish, ular yordamida iqtisodiyotda kechayotgan jarayonlarni mushohada etish, makroiqtisodiy muammolarni yuzaga kelishiga sabab bo'lgan omillarni aniqlash usullari bilan tanishtirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi deb o'ylaymiz.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Makroiqtisodiyot va statistika vazirligini qayta tashkil etish to'g'risida" gi Farmoni. // Xalq so'zi, 2002 yil 26 dekabr.

## O'QUV FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI

Bu fanni o'qitishdan maqsad, talabalarni mamlakat iqtisodiyotida kechayotgan liberallashtirish va modernizatsiyalash sharoitida milliy hisobchilik, uning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, shoyotlari tizimi bilan tanishtirish, shu asosida makrodarajada ro'y berayotgan iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish va to'g'ri qarorlar qabul qila olishni o'rgatishdan iborat. Chunki, bozor iqtisodiyoti Sharoitida boshqaruvda iqtisodiy-statistik usullarning nufuzi katta bo'ladi. Iqtisodiy tahlil esa, iqtisodiy-statistik usullar bilan boshqaruv tizimini o'zagini tashkil qiladi. Shu sababli MHT fanida o'qitiladigan makrodarajada ko'rsatkichlari hisoblash va iqtisodiy tahlil usullarini o'rganish talabani dunyoqarashlarini kengaytiradi va tizimiy fikrlashga o'rgatadi. Shu bilan birga iqtisodiyotda kechayotgan jarayonlarni muShohada etish, iqtisodiy muammolarni yuzaga kelishiga sabab bo'lgan omillarni aniqlash usullari bilan tanishtirishdir. Shu bilan birga talabalarning kelajakda to'laqonli iqtisodchi va rahbar bo'lishlariga muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar**

“Milliy hisoblar tizimi” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

- fanni predmeti, ob'ekti va vazifalari;
- milliy hisoblar tizimi fani nazariy asoslari va ularni hisoblarini tuzish tamoyillari;
- ichki va milliy iqtisodiyot va u bilan bog'liq kategoriyalar;
- milliy hisoblar tizimida ishlab chiqarish chegarasi;
- milliy hisobchilikda guruhlash va uni tasnifi;
- iqtisodiy faoliyat va uni tarkibi;
- iqtisodiy faoliyatni natijaviy ko'rsatkichlari va ularni guruhlash;
- ishlab chiqarish faoliyati va uni natijaviy ko'rsatkichlarini hisobga olish, hisoblash usuli;
- ishlab chiqarish hisobi va uni asosiy ko'rsatkichlarini hisobga olish, hisoblash usuli va tahlil qilish;
- daromadlarning shakllanishi, taqsimlash hisoblari va asosiy ko'rsatkichlarini hisobga olish, hisoblash usuli va tahlil qilish;
- daromatlardan foydalanish hisoblari va uni asosiy ko'rsatkichlarini hisobga olish, hisoblash usuli, tahlil qilish;
- kapital bilan qilinadigan hisoblar va uni asosiy ko'rsatkichlarini hisobga olish, hisoblash usuli va tahlil;
- tashqi aloqalar sektorini hisoblari va uni asosiy ko'rsatkichlarini hisobga olish va hisoblash usuli;
- mutaxassislik bo'yicha maxsus bilimlar, kasb faoliyat ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;

- iqtisodiy tarmoqlar, sektorlar va iqtisodiyot milliy hisoblar tizimini hisoblarini statistikasini tashkil qilish va ularning hisoblarini tuzish va tahlil qilish bo'yicha malakalariga ega bo'lishi kerak.

### **Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi**

Milliy hisobchilik tarmoqlar, sektorlar, demografiya, ijtimoiy statistika, iqtisodiy nazariya va buxgalteriya fanlari bilan uslubiy va ma'lumotlar bilan uzviy bog'langan. Milliy hisobchilikni asosi iqtisodiy matematik modellar (ayniqsa tarmoqlararo balans) tashkil topgani sababli u ekonometriya, matematika va matematik statistika fanlari bilan uzviy bog'langan. Milliy schyotlar ko'rsatkichlarini hisoblashda birlamchi ma'lumotlarni buxgalteriya hisoblaridan olinganligi sababli u bilan uzviy bog'langan.

### **Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni**

“Milliy hisoblar tizimi” fani iqtisodiyotda iqtisodiy barqarorlik jarayonini vujudga keltirishda, iqtisodiyot ustidan to'la nazorat o'rnatish, iqtisodiyotda bo'layotgan o'zgarishlarni, rivojlanishlarni, siljishlarni axborot formasida olib turadi va shunga asosan o'zining iqtisodiy siyosatini ishlab chiqadi.

### **Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, komp'yuter slaydlari, pindbord texnikasi hamda virtual stendlardan foydalanildi. Ma'ruza va amaliy darslarida mos ravishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan qo'llaniladi.

## **2. ASOSIY QISM**

### **Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni**

#### **Fanning predmeti va vazifalari. O'zbekistonda qo'llanilayotgan milliy hisobchilik tizimi, ularning shakllanish bosqichlari va yo'nalishlari**

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy hayotida ro'y berayotgan keskin o'zgarishlar, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish, shuningdek, respublikaning jahon iqtisodiy hamjamiyati bilan uyg'unlashuviga intilishi, respublikamizda milliy xisobchilik tizimini (MHT) yuritish zarurati.

Milliy hisoblar tizimi (MHT) haqida tushuncha. MHT ma'lumotlarining iste'molchilari. MHT bilan buxgalteriya uchyoti va xalq xo'jaligi balansi (XXB) o'rtasidagi munosabatlar. MHTning paydo bo'lishi va taraqqiyot bosqichlari. MHT ning nazariy asoslari, kontseptsiyalari va tushunchalari. Iqtisodiy ishlab chiqarish omillari. O'zbekiston Respublikasida milliy schyotlar tizimini joriy etish va asosiy stastistikani jahon standartlari asosida reformatsiya qilish borasida Davlat dasturi

(VMning 24.08.1994 yildagi 433 sonli qarori) va uni amaliyotga qo'llanishi, erishilgan yutuqlar va muammolar.

### **Milliy hisoblar tizimida iqtisodiy kategoriyalar, operatsiyalar va asosiy tasniflashlar**

Milliy va ichki iqtisodiyot, ularga oid kategoriyalar. Iqtisodiy faoliyat va uning chegarasi. Bozorga oid va nobozor ishlab chiqarishlar. Iqtisodiy birliklar va iqtisodiy xudud. Milliy va ichki iqtisodiyotni sektorlar va tarmoqlarga bo'linishi. Sektorlar va tarmoqlarni tashkil qilish kriteriya (mezon)lari. Nomoliyaviy korporatsiyalar sektori. Moliyaviy korporatsiyalar sektori. Davlat muassasalari sektori. Uy xo'jaligiga xizmat qiluvchi notijoriy tashkilotlar sektori. Uy xo'jaligi sektori. Tashqi aloqalar sektori, tashqi dunyo (barcha rezident va norezidentlik birliklar). MHT da iqtisodiy operatsiyalar. Iqtisodiy operatsiyalarning klassifikatsiyasi (tasnifi). Operatsiyalarni qayd (registratsiya) qilish qoidalari (printsipalari). Tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, ularni ayriboshlash, ishlatish, iste'mol qilish bilan bog'liq operatsiyalar, daromad taqsimoti va qayta taqsimot operatsiyalar, moliya instrumentlari bilan bog'liq operatsiyalar. Moliyaviy instrumentlar (baho, soliq, subsidiyalar va boshqalar) bilan qilinadigan operatsiyalar.

### **Milliy hisoblar tizimi schyotlari tarkibi, ularni O'zbekistonda ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari**

MHT schyotlari tuzishni asosiy balans usuli. MHT schyotlari tarkibi, ularni tuzishning umumiy qoidalari. Iqtisodiyotning joriy schyotlari va ularni tarkibi, jamg'arish schyotlari va ularning tarkibi, aktivlar va passivlar balans schyoti, uning tarkibi. Instituttsional sektorlar, tarmoqlar va iqtisodiy operatsiyalarning ba'zi turlari uchun schyotlar. Yaxlit iqtisodiyot uchun schyotlar va ularni umumiy sxemasi. Tashqi dunyo sektorlarining schyotlar tasnifi.

### **Iqtisodiy ishlab chiqarish jarayonining natijaviy ko'rsatkichlarini hisobga olish va hisoblash usullari**

Iqtisodiy faoliyat haqida tushuncha. Ishlab chiqarish xaqida tushuncha, uning chegarasi. Bozorga oid va nobozor ishlab chiqarish. Ishlab chiqarish, sotuv, barter, mehnatga naturada xaq to'lash, o'zaro etkazib berishlar, tayyor mahsulotlar zaxirasi va tugallanmagan ishlab chiqarish xajmlari o'zgarishini hisoblash. Yalpi ishlab chiqarish, oraliq iste'moli, asosiy kapital iste'moli, yalpi qo'shilgan va sof qo'shilgan qiymat hajmini hisoblash. Ishlab chiqarish va oraliq iste'molni baholash qoidalari. Iqtisodiyotning tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish soha tarmoqlarida, sektor va kichik sektorlarida yalpi ishlab chiqarish, oraliq iste'moli, yalpi ichki mahsulot va yalpi qo'shilgan qiymat, ularni sof hajmlarini hisoblash xususiyatlari. Xufiyona va yashirin iqtisodiyot bo'yicha yalpi ishlab chiqarish hajmlarini hisoblash.

## **Daromadlarning shakllanishi, ularni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayon ko'rsatkichlarini hisobga olish va ulardan makroiqtisodiy tahlilda foydalanish**

Daromadlar to'g'risidagi umumiy (DJ XIKS, P. LIPPE) kontseptsiya va MHTda daromadlarning ko'rsatkichlari. O'zbekiston Respublikasida daromad ko'rsatkichlari: birlamchi daromadlar, pul shaklidagi joriy transfertlar, ixtiyordagi daromadlar, natura shaklidagi joriy ijtimoiy transfertlar, milliy daromad, milliy ixtiyordagi daromad va ularni hisobga olish va hisoblash usullari. Qo'shilgan qiymatning tarkibiy qismlari: mehnat haqi (naqd va natura shaklidagi ish haqi, ijtimoiy sug'urta), ishlab chiqarish va importga solingan soliqlar (ularning klassifikatsiyasi), subsidiyalar (ularning klassifikatsiyasi), foyda va aralash daromad. Mulk daromadlari: foizlar, korporatsiyalarning taqsimlanadigan foydasi, dividendlar, renta va boshqalar. Yalpi ichki mahsulot hajmini daromadlarni qo'shish uslubida hisoblash. Daromadlarni ikkilamchi taqsimoti schyotidagi asosiy operatsiyalar. Ixtiyordagi daromad. Milliy ixtiyordagi daromad. Transfertlar: joriy va kapital transfertlar, pul va natura shaklidagi transfertlar. Daromadlarga solingan soliqlar va boshqa joriy soliqlar. Ijtimoiy sug'urta ajratmalar, ijtimoiy nafaqalar va yordamlar. Boshqa joriy transfertlar. Qayta taqsimlashning pul va natura shakllari.

### **Daromatlardan foydalanish jarayon ko'rsatkichlarini hisobga olish, ularni hisoblash usullari**

Daromatlardan foydalanish schyotlar tasnifi va uning asosiy ko'rsatkichlari. Pirovard iste'mol. Uy xo'jaligi va uy xujaligiga xizmat kiluvchi notijorat tashkilotlarning pirovard iste'moli. Tovarlar va hizmatlarning davlat xaridi (pirovard iste'mol) va uni tasnifi (individual, jamoa, umumdavlat boshqaruv xarajatlari).

Jamg'arish – sarmoya sarflarini moliyalashtirishni asosiy manbalari. Haqiqiy pirovard iste'moli. Uy xo'jaligini va davlat boshqaruv tashkilotlarini haqiqiy pirovard iste'moli. Tuzatish kiritilgan ixtiyoriy daromaddan foydalanish schyoti va uning asosiy ko'rsatkichlari.

Pensiya (nafaqa) jamg'armalarida aktivlarni sof qiymati o'zgarishi tufayli kiritiladigan tuzatish.

### **Sarmoya bilan qilinadigan operatsiyalar ko'rsatkichlarini hisobga olish, hisoblash usullari va makroiqtisodiy tahlilda foydalanish**

Jamg'arma schyotlari va tasnifi. Iqtisodiy aktivlar xaqida tushuncha va tartibi. Kapital transferlari va ularni tarkibi. Kapital bilan qiladigan operatsiyalar schyoti va uning ko'rsatkichlari. Asosiy kapital jamg'arish va uning tarkibi, asosiy fondlar, aylanma mablag'lar va ularning tarkibi, sof qimmatbaho buyumlar va ularni hisobga olish. Sof o'zlashtirish ishlab chiqarilgan nomoliyaviy aktivlar. Moliya va boshqa schyotlar va ularning asosiy ko'rsatkichlari. Aktiv va passivlar balansi va ularni tasnifi. Aktivlar va passivlar boshqa o'zgarishlar schyoti. Nomoliyaviy va moliyaviy aktivlar tarkibi

## **Milliy iqtisodiyotning tashqi iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi iqtisodiy operatsiyalar ko'rsatkichlarini hisobga olish va makroiqtisodiy tahlilda foydalanish**

MHTda tashqi iqtisodiy faoliyat va uning tarkibiy qismi. Tashqi aloqalar schyotlarining tarkibiy qismi. Tashqi aloqalar tovarlar va xizmatlar schyoti va uni asosiy ko'rsatkichlari, ularni hisoblash usuli FOB va SIF baholar va ularni hisoblash usuli. Tashqi aloqalar birlamchi daromadlar va joriy transfertlar schyoti va uni asosiy ko'rsatkichlari. Tashqi aloqalar kapital operatsiyalar schyoti ko'rsatkichlari va ularni hisoblash usullari

## **Milliy hisoblar tizimi ko'rsatkichlarini o'zgarmas baholarda hisoblash usullari va ularning statistik tahlili**

Joriy va o'zgarmas baholar. Xolding foyda va zarari. MHT ko'rsatkichlarini asosida o'zgarmas baholarda baholash usullari: baholar indeksi orqali deflyatsiya usuli; fizik hajmi indeksi yordamida bazis davridagi ko'rsatkichlar orqali ekstropolyatsiya qilish usuli; to'g'ridan-to'g'ri o'zgarmas baholarda baholash usuli; ko'rsatkichlarni xarajat elementlarini deflyatsiya qilish usuli; ikki marotaba deflyatsiya usuli.

Dinamika qatorlari va ularning iqtisodiy, ijtimoiy jarayonlarni bilishda va tahlil qilishdagi roli. MHTni asosiy schyotlarini ko'rsatkichlaridan foydalanib iqtisodiyotni tahlil etish usullari.

## **Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar**

### **Amaliy mashg'ulotlari mavzulari:**

1. Fanning predmeti va vazifalari. O'zbekistonda qo'llanilayotgan milliy hisobchilik tizimi, ularning shakllanish bosqichlari va yo'nalishlari
2. Milliy hisoblar tizimida iqtisodiy kategoriyalar, operatsiyalar va asosiy tasniflashlar
3. Milliy hisoblar tizimi schyotlari tarkibi, ularni O'zbekistonda ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari
4. Iqtisodiy ishlab chiqarish jarayonining natijaviy ko'rsatkichlarini hisobga olish va hisoblash usullari
5. Daromadlarning shakllanishi, ularni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayon ko'rsatkichlarini hisobga olish va ulardan makroiqtisodiy tahlilda foydalanish
6. Daromadlardan foydalanish jarayon ko'rsatkichlarini hisobga olish, ularni hisoblash usullari
7. Sarmoya bilan qilinadigan operatsiyalar ko'rsatkichlarini hisobga olish, hisoblash usullari va makroiqtisodiy tahlilda foydalanish
8. Milliy iqtisodiyotning tashqi iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi iqtisodiy operatsiyalar ko'rsatkichlarini hisobga olish va makroiqtisodiy tahlilda foydalanish



9. Milliy hisoblar tizimi ko'rsatkichlarini o'zgarmas baholarda hisoblash usullari va ularning statistik tahlili

### **Amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqildi. Unda talabalarning ma'ruza darslaridan olgan bilim va ko'nikmalari amaliy masalalar, keyslar, tarqatma materiallar orqali yanada boyitiladi. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimini mustahkamlash hamda oshirish maqsadida ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish, mavzular bo'yicha taqdimotlar va ko'rgazmali qurollar tayyorlash tavsiya etiladi.

### **Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- Ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari va MHT ning amaldagi standartlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzular bo'yicha referat tayyorlash;
- seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
- amaliyotdagi mavjud muammolarning echimini topish;
- ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislarni tayyorlash;
- fanning eng dolzarb muammolarini qamrab oluvchi referatlar yozish;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni: Mustaqil ta'lim talabaning bajaradigan ilmiy izlanishi bo'lib, mamlakatning iqtisodiy jarayonlarini: sotsial-iqtisodiy, fond birjalari, turizm va turistik xizmatlari iqtisodiy statistik taxmini, ko'chmas mulk va iqtisodiyotdagi o'rni, iqtisodiy va ekologik muammolari bog'liqligi va uni iqtisodiy va sotsial natijalariga ta'siri va boshqalar tavsiya etiladi.

talabalar mustaqil ta'limlari mavzulari asosida, kelgusi bajariladigan bitiruv malakaviy ishlari mavzulari bilan uzviylikda bajariladi.

### **Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'lim mavzulari:**

1. "Milliy hisoblar tizimi" fanining predmeti, maqsadi, vazifalari, milliy hisobchilikning yuritish zaruriyati, yuzaga kelishi, tarixi va taraqqiyot bosqichlari
2. MHT da iqtisodiy agentlar, kategoriyalar, iqtisodiy operatsiyalari va asosiy tasniflar
3. Milliy hisobchilik usullari va MHT schyotlarining tasnifi va ularni tuzishning umumiy tamoyili
4. Ishlab chiqarish schyoti va uning asosiy ko'rsatkichlarini hisobga olish, hisoblash usullari va tahlili

5. Daromadlarning shakllanish va taqsimlash schyotlari va ularning asosiy ko'rsatkichlarini hisobga olish, hisoblash usullari va tahlili
6. Daromadlardan foydalanish schyotlari va ularni asosiy ko'rsatkichlarini hisobga olish, hisoblash usullari va tahlili
7. Jamg'arma schyotlari va ularning asosiy ko'rsatkichlarini hisobga olish
8. Tashqi aloqalar sektorining schyotlari va ularning asosiy ko'rsatkichlarini hisobga olish, hisoblash usullari va tahlili
9. MHT da ko'rsatkichlarni o'zgarimas baholarda hisoblash va MHT schyot ko'rsatkichlarni tahlilining asosiy yo'nalishlari
10. O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlar
11. Iqtisodiyot rivojining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari
12. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda tarkibiy o'zgarishlari
13. Pirovard iste'mol va yalpi jamg'arish ko'rsatkichlari o'zaro munosabatini tahlili
14. O'zbekistonni tashqi savdo balansi dinamikasini tahlili

### **Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti**

“Milliy hisoblar tizimi” fanini o'qitishda mul'timedia jihozlaridan foydalanib, mavzular bo'yicha ishlab chiqilgan formatdagi jadvallardan, komp'yuter, audio va video jihozlardan, dioproektor va kadaskoplardan foydalaniladi. Shuningdek, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar davomida tarqatma materiallar, slaydlar hamda ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi. Bundan tashqari, quyidagilar ham qo'llaniladi:

- Didaktik materiallar tayyorlash;
- Verbal ifodalash;
- Inset metodi;
- Kontseptual metod;
- CASE STUDY metodi va boshqalar.

### **Darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxai**

#### **Asosiy:**

1. Qoraboev A.R., Rashitova N “Milliy hisobchilik: nazariya va amaliyot” (O'quv-uslubiy qo'llanma) T.: 2013 y
2. Qoraboev A.R. Milliy hisoblar tizimi fanidan masalalar to'plami. O'quv uslubiy qo'llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2008. – 140 b.
3. Maxmudov B. Milliy hisoblar tizimi / Darslik. – T.: TDIU, 2010.
4. Основы национального счетоводства (международный стандарт): Учебник./ под ред. Ю.Н.Иванова. – Москва: ИНФРА-М, 2011. – 475с.
5. Система национальных счетов. Издание ООН, 2012 г.
6. Елисеева И.И. Практикум по макроэкономической статистики.- Москва-2008 г.

## Qo'shimcha:

7. Maxmudov B. Milliy hisobchilik asoslari./O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2003.
8. Qoraboev A., Erkaboev M. MHT schyotlarini tuzish bo'yicha masalalar to'plami./O'quv qo'llanma – T.: TMI, 2003.
9. G'oyibnazarov B.K. O'zRes MHT ni ishlab chiqishning ilmiy-metodologik asoslari (Statistik aspekt). I.f.d. darajasi uchun dissertatsiya avtoreferati T., TGIU, 2006 yil
10. Internet saytlari:
  - [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
  - [www.undp.uz](http://www.undp.uz)
  - [www.cisstat.com](http://www.cisstat.com)
  - [www.gks.ru](http://www.gks.ru)
  - [www.unstats.un.org](http://www.unstats.un.org)
  - [www.imf.org](http://www.imf.org)
  - [www.unescap.org/stat/](http://www.unescap.org/stat/)
  - [www.testing.uz](http://www.testing.uz)
  - [www.tmi.uz](http://www.tmi.uz)
  - [www.dissertant.uz](http://www.dissertant.uz)
  - [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
  - [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

